

## ONA TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Nosirova Hayotxon*

*Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani 28-umumiy o‘rta  
ta‘lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilar bilan ishlashda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida ma‘lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning darslarni samarali o‘zlashtirishlari uchun interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari, uslublari haqida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Pedagogik, interfaol, innovatsiya, modul, tanqid, metod, ona tili, ta‘lim tizimi, texnologiya.

O‘qitishning pedagogik texnologiyalari va zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi. Shuningdek ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari izlab topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va

tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ona tili darslarida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan qo'llanishi mumkin bo'lgan ayrim metodlar xususida so'z yuritimiz.

1. Modulli talim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy- ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatadi, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinishi vujudga keltirish.

3. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalar tog'riligini tasdiqlashdir.

4. Interfaol metod texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlarga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

6. Sinov darslari. Yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish shakllari va usullarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, o'qituvchi o'quvchini o'quvjarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati bu darsni interfaol darsga aylantiradi. O'qitishning yangi interfaol shakllari – ta'lim- tarbiya masalalarini unumli yechishga, o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llaridan biri. Xorijiy davlatlar tajribasida sinovdan o'tgan bu metod yangi interfaol metodga ko'radarslar bir necha bosqichga bo'linadi: Ular chaqiriq, aqliy hujum, anglash, fikrlash kabi bosqichlardir.

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarni faollashtirish, Mavzuning mazmun – mohiyatiga kirib borish, uni his etish, anglab yetish jarayoniga tayyorlash kabi maqsadlar ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berish jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashadi.

2. Aqliy hujum bosqichi. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanishi mumkin bo'lib, u muamoni o'z g'oyalari, fikrlarini aytish yo'li bilan hal qilishdan iborat. Masalan, o'qituvchi sinf taxtasiga til so'zini yozadi va o'quvchilardan "Ushbu so'z sizlarda qanday tassavvur hosil qildi yoki shu so'zni yana qaday talqin qilsa bo'ladi?" – deb so'raydi. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni sinf taxtasiga quyidagi tartibda yozib borishi mumkin: O'qituvchilarning fikrlari noto'g'ri deb topilmasligi lozim aksincha, o'qituvchi iloji boricha o'quvchilarga yordam berishi noto'g'ri fikr aytib qo'yishdan cho'chimaslikka da'vat qilishi, oxirida esa bildirilgan fikrlarning har birini o'qituvchi tahlil qilib berishi kerak.

3. Anglash bosqichi. Bu bosqichda aqliy hujum bosqichidagi mavzuga oid bahs-munozara natijasida yuzaga kelgan xulosaviy fikrlar eshitilib, o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi. Savol-javoblar orqali mavzu mustahkamlanadi. Ta'limda interfaol metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad – o'qituvchining o'z

pedagogik xazinasini qayta ko'rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqori sifatli metodik yo'nalishga intilishini hosil qilish, kelgusi o`ylar, izlanishlar, tajribalarga undashdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamajonov A. Qo'shma gaplar stilistikasi. –Toshkent: Fan, 1990. –B.64.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T.: O'qituvchi,1995
- 3.O'zbek tili grammatikasi 1-tom. -Toshkent.1975,89-91.